



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GENDER TENGLIGI VA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI TA'MINLANISHINING HUQUQIY MEXANIZMI

Sadikova Yorqinoy Salijonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti yuridik fakulteti "Davlat-huquqiy fanlar" kafedrasini mudiri

Tolibbaeva Malika Ulmasjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti yuridik fakulteti "Davlat-huquqiy fanlar" kafedrasini assistenti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10049888>

ARTICLE INFO

Received: 18th October 2023

Accepted: 27th October 2023

Online: 28th October 2023

KEY WORDS

Gender tenglik, sotsial faollik, institutsional, konvensiya, ekspluatatsiya, integratsiya.

Gender equality, social activism, institutional, convention, exploitation, integration.

Гендерное равенство, социальная активность, институциональность, конвенция, эксплуатация, интеграция.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida gender tengligi va xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning huquqiy mexanizmi to'g'risida fikr yuritilgan. Unda xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, davlat hayotidagi rolini kuchaytirish, ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli borasida tahlillar asosida ma'lumotlar berilgan.

This article discusses the legal mechanism of ensuring gender equality and women's rights in the Republic of Uzbekistan. It provides information based on analyzes on ensuring the legal interests of women, strengthening their role in the life of the state, and their place and role in social life.

В данной статье рассматривается правовой механизм обеспечения гендерного равенства и прав женщин в Республике Узбекистан. Предоставляется информация, основанная на анализе по обеспечению законных интересов женщин, усилению их роли в жизни государства, их места и роли в общественной жизни.

KIRISH

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda gender tenglikka erishish, xotin-qizlarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyat va davlat hayotidagi rolini kuchaytirish uchun shart-sharoit yaratish yangi O'zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

ASOSIY QISM

Mamlakatimiz rahbariyatining tashabbusi va ta'kidlab o'tish lozimki, Prezident Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 21 iyun kuni Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi mazkur masalalarni hayotga tatbiq etishda muhim tayanch nuqtasi bo'ldi. "Meni ongimizda



chuqur ildiz otgan bir aqida ko'p o'ylantiradi. Biz doimo ayol – bu ona, oilamiz bekasi, deb ularni ulug'laymiz. Bu to'g'ri, albatta. Ammo hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart".

So'nggi paytlarda gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rolini oshirish bo'yicha ishlar quyidagi bir nechta yo'nalishda amalga oshirilmoqda:

- xotin-qizlar huquqlariga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- xotin-qizlarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- gender tenglik va xotin-qizlar huquqlari to'g'risida jamoatchilik xabardorligini oshirish;
- qonunlarni qo'llash amaliyotida ularning bajarilishini ta'minlash uchun tegishli huquqiy normalar asosida mas'ul shaxslarni o'qitish.

O'tgan besh yilda bu borada 25 ta qonun hujjati, jumladan, 4 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 ta farmon va qarori, hukumatning 17 ta qarori qabul qilindi. Masalaning muhim tomoni shundaki, BMT Konvensiyasiga muvofiq qabul qilingan yangi tashkil etilgan barcha institutsional mexanizmlar xotin-qizlar huquqlari, gender tenglikni ta'minlash va ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berishning uzviy va yagona mexanizmini ifodalaydi. Bu xatti-harakatlarning barchasi – qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar va qonun ijodkorligi norma va standartlariga va huquqni qo'llash amaliyotiga mos keluvchi O'zbekiston gender siyosatini amalga oshirishda muhim qadam bo'lmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan Global kun tartibi Barqaror rivojlanish maqsadlarini (keyingi o'rinlarda BRM) izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida 2018 yilning 20 oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2030 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish sohasidagi 16 ta milliy maqsad va ular bilan bog'liq bo'lgan 127 ta vazifa tasdiqlandi.

Beshinchi maqsad (gender tengligi to'g'risida) vazifalariga muvofiq 2030 yilga borib hamma joyda barcha ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida xotin-qizlarning to'liq va samarali ishtirok etishi hamda ularga yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, qayd etilgan maqsad boshqaruvning turli darajalarida davlat dasturlarini qabul qilish jarayoniga gender tengligi tamoyillarini to'liq joriy qilishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun to'qqizta vazifa ishlab chiqilgan:

- hamma joyda barcha ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish, shu jumladan, bilvosita kamsitishlarga barham berish tamoyillarini qonunchilikka kiritish va huquqni qo'llash amaliyotiga samarali tatbiq etish;
- xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllarini, shu jumladan odam savdosi, jinsiy va boshqa ekspluatatsiya shakllarini yo'q qilish;
- erta va majburiy nikohlarga yo'l qo'ymaslik;



- milliy sharoitlarni hisobga olgan holda, kommunal xizmatlar, infratuzilma va ijtimoiy himoya tizimlarini ta'minlab, uy xo'jaligini yuritishda va oilada umumiy mas'uliyat tamoyilini qo'llab-quvvatlab, haq to'lanmaydigan parvarish va uy xo'jaligini yuritish ishlarini tan olish va qadrlash;
- xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida to'liq va samarali ishtirok etishini hamda ularga yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash;
- reproduktiv salomatlik sohasida keng qamrovli tibbiy-sanitariya yordami uchun sog'liqni saqlash xizmatlari bilan yalpi qamrovni ta'minlash;
- xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishda qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish;
- xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashish uchun yuqori samarali texnologiyalar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faolroq foydalanish;
- boshqaruvning turli darajalarida davlat dasturlarini qabul qilish jarayoniga gender tengligi tamoyillarini to'liq integratsiya qilish.

Bundan tashqari, 2019 yilning sentyabr oyida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida", "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish", "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida" kabi genderni oid qonunlar qabul qilindi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng nikoh yoshi belgilandi, xotin-qizlarning mehnat faoliyatining ilgari taqiqlangan turlarini tanlashi bilan bog'liq cheklovlar va mehnat qonunchiligining boshqa genderassimetrik qoidalari bekor qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5116-sonli "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktabrdagi 625-sonli "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va mazkur yilda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, yerkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga doir qonun qabul qilindi.

Ma'lum bo'lishicha, 2022 yilda ilgari himoya orderi berilgan xotin-qizlarning 12 nafari takroran zo'ravonlikka uchragan. Amalda zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxsga himoya orderi ichki ishlar idoralari tomonidan 30 kunga beriladi Yangi qonun bilan esa bunday orderning muddati sud tomonidan 1 yil muddatgacha uzaytirilishi belgilanmoqda. Shuningdek, himoya orderi bilan zo'ravonga nisbatan jabrlanuvchi yashaydigan turar-joy maydoni yoki uning bir qismidan foydalanish, jabrlanuvchining ish joyi yoki boshqa joylarga yaqinlashishini muayyan vaqtga cheklash, muayyan joylarda bo'lmaslik, narkologik kasallikdan davolanish kabi qo'shimcha majburiyatlar yuklatilish mumkinligi belgilanmoqda. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan sudlarga kiritiladigan da'volar bo'yicha davlat bojini to'lash majburiyatining mavjudligi xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalariga xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha hamda ma'muriy sudlarga bergan da'volar, arizalar va shikoyatlar yuzasidan davlat bojidan ozod qilinmoqda.



XULOSA

Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi uchun, ularning huquq hamda erkinliklarni ta'minlash, intellektual va ma'naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratilganligi xotin-qizlar huquqlarini ta'minlanishining huquqiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda shuni aytish mumkinki, qonunchilik darajasida ham, amalda joriy etish darajasida ham qabul qilingan chora-tadbirlarga qaramay, gender zo'ravonlik muammosi uning turli ko'rinishlarida dolzarbligicha qolmoqda va quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratishni talab qiladi:

- ham ma'muriy, ham fuqarolik, ham jinoiy qonunchilikda jazo choralarini doimiy monitoring qilish, kuzatib borish va kuchaytirish;
- huquqiy mexanizmlar samaradorligini oshirish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchni oshirish;
- maishiy zo'ravonlikdan jabrlanganlarga har tomonlama bepul huquqiy, psixologik, ijtimoiy va tibbiy yordam ko'rsatish, bu jabrlanganlarning jinoyat, ma'muriy va fuqarolik ishlari doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini oshiradi.

References:

1. Jasanova S. Ayollar ijtimoiy faolligini oshirishning shaxs barkamollashuvidagi ahamiyati. // Respublika ilmiy amaliy konfrensiya materiallari. 2011 yil, 14 mart, B. 110-111.
2. Abdurauf Fitrat. Oila. T.: Ma'naviyat, 1998, B. 8.
3. Entoni Giddens. Sosiologiya: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma, Ilmiy muharrirlar: A. Begmatov va M. Bekmurodov, - T.: Sharq, 2002, B. 459.
4. Sobirova D. Ayollarning barkamol avladni tarbiyalashdagi o'rni. // Tarbiya, 2008, 6-son, B. 14.
5. Xalilova M. Oila va jamiyat // Ta'lim tizimida ijtimoiy - gumanitar fanlar. 2008, 4 - son, B. 164.
6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izoxli lug'at. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2009, B. 452.
7. Ayollar xuquqlari deskrinasiya qilinishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida BMT konvensiyasi. III-qism, 11-modda.
8. Gartman. Ayollar xuquqlarini muxofazasi jamiyat va davlatning burji xamda vazifalaridir. / Ayol xuquqi va erkinliklari. - T.: Adolat. 2002. 86 bet.
9. Entoni Giddens. Sosiologiya: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma, Ilmiy muharrirlar: A. Begmatov va M. Bekmurodov, - T.: Sharq 2002. 848 bet.
10. Ayol xuquqi va erkinliklari. - T.: Adolat. 2002. 234 bet.
11. Ismailova, Z., Khimmataliev, D., Khashimova, M., Fayzullaev, R., & Sadikova, F. (2019). The role of modern women in society and family. Opcion, 35(Special Issue 21), 734-751
12. Karabaevna, Z., & Raximovich, B. (2019). The use of innovation technologies in the formation of students' professional competences. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 6898-6902. <https://doi.org/10.35940/ijeat.A2996.109119>